

O'ZBEK TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING OG'ZAKI NUTQINI
RIVOJLANTIRISH METODLARI.

**MAXAMMADALIYEVA MOXIRAXON
FARXODJON QIZI**

**KUAF IT va ijtimoiy gumanitar
fakulteti**

**FTO[o'zb] 1-kurs 25-13- guruh
talabasi**

Email: maxammadaliyevamohira@gmail.com

**Tel: +998
95 727 27 53**

Annotatsiya: Ushbu maqola umumta'lim maktablarda o'zbek tili darslari jarayonida o'quvchilarning og'zaki nutq malakalarini shakillantirish va rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar hamda foydali bo'lgan metodlarni atroflicha o'rganilgan. Nutqiy faoliyatni rivojlantirishda motivatsion, interaktiv va ijodiy tamoyillarni qo'llashning o'rni ilmiy jihatdan asoslanadi. O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakillantirishda debatlar, rolli o'yinlar va raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: og'zaki nutq, nutq turlari, faol nutq, nutq o'stirish, nutqiy madaniyat, interaktiv metodika.

Abstract: This article analyzes methodological recommendations aimed at developing students' oral speech skills in general education schools where instruction is conducted in the Uzbek language. The study focuses on organizing

lessons effectively, developing speech activity, and applying motivation, interactive, and creative approaches. It examines the importance of using debates, role-playing games, and digital technologies in shaping students' communicative competencies and evaluates the effectiveness of their application.

Keywords: oral speech, types of speech, active speech, speech development, speech culture, interactive methods.

Аннотация: В данной статье анализируются методические рекомендации, направленные на формирование и развитие навыков устной речи учащихся в общеобразовательных школах с обучением на узбекском языке. Основное внимание уделяется эффективной организации учебного процесса, развитию речевой активности, а также применению мотивационных, интерактивных и творческих подходов. Рассматривается значение использования дебатов, ролевых игр и цифровых технологий в формировании коммуникативных навыков учащихся и оценивается эффективность их применения.

Ключевые слова: устная речь, виды речи, активная речь, развитие речи, культура речи, интерактивные методы.

Bugungi kunda yosh avlodni mustaqil va mantiqiy fikrlashga o'rgatish dolzarb masalalardan bo'lib kelmoqda. Davlat ta'lim standarti , dasturlarda umumta'lim o'quv dasturlarida , asosiy va muhim e'tibor o'quvchining o'qish va o'qib tushunish , tinglash va tinglab tushunish, fikrni ifoda qilish va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga urg'u berilgan .

Ayniqsa, o'zbek tili darslarida o'quvchilarning fikrini erkin , ravon va mantiqiy bayon eta olish ko'nikmalarini shakilantirish ta'lim sifatini oshrishda muhim ahamiyat kasb etadi. Og'zaki nutq – bu nafaqat til birliklaridan to'ri foydalanish , balki fikrni ifodali , madaniyatli va maqsadga muvofiq tarzda

yetkazish jarayonidir. Shu sababli hozirgi kunda o'zbek tili darslarida an'anaviy yondashuv bilan bir qatorda zamonaviy, interfaol va inovatsion metodlardan foydalanish talab etiladi.

Hozirda o'quvchilarda og'zaki nutq sustlashib ketgani bois uni rivojlantirish uchun turli metod-usullar sinab ko'rib, amaliyotga joriy etilmoqda. Aslida nutq nima uchun rivojlanishdan ortda qoladi? Avvalo, mana shu savolga javob izlasak. Nutq rivojlanmay qolishining bir necha sabablari bo'ladi:

1. Oilaviy muhitning yetarli emasligi: Bola bilan kam muloqot qilinishi, suhbatga tortilmasligi, savollarga yetarli javob bermasligi nutq rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2. Psixologik omillar. Qo'rquv, tortinchoqlik, o'ziga ishonchsizlik, stress holatlari o'quvchining erkin gapirishiga to'sqinlik qiladi.

3. Ta'lim jarayonidagi kamchiliklar: Darsda faqat nazariyaga urg'u berilib, amaliy nutq mashg'ulotlarining kamligi yoki umumman bo'lmasligi o'quvchilarning og'izaki nutqini rivojlantirmaydi.

4. Ijtimoiy muhit ta'siri: Telefon, planshet va televizor oldida uzoq vaqt o'tkazish, tengdoshlari bilan ham muloqot qilish, jonli muloqotni kamaytiradi, jamoaga moslashishda qiyinchiliklar tug'diradi va nutq faolligining pasayishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda nutqning yetarli darajada rivojlanmasligi birgina omil bilan bog'liq emas, balki ijtimoiy, psixologik, pedagogik va biologik sabablarining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida yuzaga keladi. Shu bois, o'zbek tili darslarida og'izaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan samarali metodlardan foydalanish, oilaviy va ta'lim muhitini boyitish muhim ahamiyatini kasb etadi. Bu muammolarni hal qilish uchun integratsiyalangan

yondashuv – lug’at, grammatika, tinglab tushunish , motivatsiya va interaktiv muhitini birlashtirgan metodlar zarur.

Og’izaki nutqning rivojlanganligi o’quvchining nafaqat til fanini, balki boshqa fanlarini puxta o’rganishga ham bevosita ta’sir ko’rsatadi. Shu sababli ona tili darslarida og’izaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan samarali metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

“O’rgatish emas, o’quvchiga mustaqil o’rganish uchun sharoit yaratish lozim”,- deydi D.Yo’ldasheva.

Biz quyida og’izaki nutqni shakllantirish uchun xizmat qiladigan ba’zi usullarni sanab o’tamiz:

1.Suhbat metodi og’zaki nutqni rivojlantirishda eng asosiy va samarali usullaridan biridir.Bu metod orqali o’qituvchi va o’quvchi o’rtasida jonli muloqot yuzaga keladi.Savol-javoblar orqali o’quvchilar o’z fikrlarini erkin bayon qilishga,mantiqiy xulosalar chiqarishni o’rganishadi.

2.Hikoya qilish va qayta hikoyalash metodi o’quvchilarning eshtishi, tushunishi va nutqiy faoliyatini rivojlantirishga katta hissa qo’shadi. Matinni o’qib yoki tinglab bo’lgach uni o’z so’zlari bilan bayon qilish o’quvchidan nutqiy aniqlik va izchillikni talab qiladi.

3.Rolli o’yinlar va sahnalashtirish metodi ham og’zaki nutqni rivojlantirishda muhim o’rin tutadi.Rolli o’yinlar jarayonida o’quvchilar turli obrazlarga kirib muloqot qiladilar.Bu esa ularning nutqiy faolligini oshiradi,talaffuz va intonatsiya ustida ishlashga yordam beradi.

4.Munozara va bahs metodi o’quvchilarning og’zaki nutqini mantiqiy va dalillarga asoslangan holda rivojlantiradi.Munozara jarayonida o’quvchilar o’z fikrlarini himoya qilishni,boshqalarning fikrini tinglashni va baholashni o’rganadilar.

Xulosa o’rnida shuni aytish kerakki,bo’lajak mutaxassislarimizning o’zbek tili darslarida og’zaki nutqini rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim va

ajralmas qismi hisoblanadi. Og'zaki nutqni rivojlantirish, nafaqat ona tili va adabiyot darslarida, balki butun o'quv faoliyati davomida bunga erishishga o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. "Nutqini rivojlantirish faqat ona tili fanining vazifasi emas, balki oila va jamoatchilikning bugungi kunda dolzarb vazifasidir" (A.G'ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova va boshqalarning, 2012). Og'izaki nutq muloqotini rivojlanishi o'quvchilarning shaxsiy va professional rivojlanishiga ham yaxshi va ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**REFERENCES:****Используемая литература:**

1. X.S.Odiljonova maqolasi "Yosh olimlar".
2. Asqarova, M. (2014) O'zbek tilshunosligi masalalari, Ilmiy nazariy anjuman materiallari. – T. 222.
3. Qosimova, K. S., Matjonov va b. (2009) Ona tili o'qitish metodikasi. (167, 301–303-betlar).
4. Yo'ldosheva D. (2021). O'zbek tilini o'qitish metodikasi. – "Durdona" nashriyoti.
5. Xolmatova, O. O. K. (2023). O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA MIQDOR KONSEPTINING KOGNITIV XUSUSIYATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(7), 292–299.
6. G'ulomov A va boshq. Ona tilini o'qitish metodikasi. – T.: "Fan va texnologiya".